

**ZAMONAVIY OILARLARDA FARZAND TARBIYASI:  
MUAMMO VA YECHIMLAR**

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti Pedagogika  
fakulteti Pedagogika yo`nalishi talabasi*

***Musurmonova Gulshoda***

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti Pedagogika  
fakulteti Pedagogika yo`nalishi talabasi*

***Abduvaliyeva Marjona***

**Annotatsiya**

Ushbu maqolada zamonaviy oilalarda farzand tarbiyasi jarayonida yuzaga kelayotgan dolzarb muammolar va ularning sabablari tahlil qilinadi. Globallashuv, internet va axborot texnologiyalarining tarqalishi natijasida bolalar ongiga turli xil tashqi ta'sirlarning kuchayishi, ota-onalarning bandligi sababli tarbiyaga yetarlicha e'tibor qaratilmasligi kabi omillar asosiy muammolar sifatida ko'rib chiqildi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, sog'lom oilaviy muhit, ota-ona va farzand o'rtasidagi samarali muloqot hamda milliy va ma'naviy qadriyatlarga asoslangan tarbiya usullari ushbu muammolarni bartaraf etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Maqolada shuningdek, zamonaviy pedagogik va psixologik yondashuvlar asosida muammolarga amaliy yechimlar taklif etildi.

**Kalit so'z:** zamonaviy oila, farzand tarbiyasi, tarbiya muammolari, oilaviy muhit, ota-ona mas'uliyati, ijtimoiy ta'sir, internet va texnologiya, ma'naviy tarbiya, axloqiy qadriyatlar, yoshlar tarbiyasi, oilaviy nizolar, pedagogik yondashuv, tarbiya usullari, psixologik muammo, yechimlar.

**Asosiy qism**

**Zamonaviy oila**-bu jamiyat rivoji, texnologiyalar, iqtisodiy va madaniy o'zgarishlar ta'sirida shakllangan, a'zolari o'rtasida tenglik, hamkorlik va ongli munosabatlar ustuvor bo'lgan ijtimoiy institutdir.

Asosiy belgilari: demokratik munosabat ustun bo'ladi.

Ayol va erkak o'rtasida tenglik kuchaygan.

Oilaning shakli o'zgarib, yadro oila keng tarqalgan bo'ladi.

Ota-onalarning bandligi farzand tarbiyasiga e'tibor bermasligi, farzandlarga erkinlik berilishining ortishi natijasida internet ta'siriga tushib qolishi va milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligi buzilgan holatda tarbiya usullarining yangilanishi. Bunga yechim sifatida ota-onalarda pedagogik va psixologik savodxonlikni oshirish, oilada sog'lom psixologik muhit yaratish, farzand bilan doimo

muloqot qilish, milliy qadriyatlarga asoslangan tarbiya berish, texnologiyalardan nazoratli va foydali foydalanish tartiblarini o'rganish.

**Tarbiyadagi asosiy muammolar:**

1. ota-onaning vaqt yetishmasligi ;
2. internet va ijtimoiy tarmoq ta'siri;
3. oiladagi muhitning nosog'lomligi;
4. tarbiya usullarining noto'g'ri qo'llanilishi;
5. avlodlar o'rtasidagi tafovut;
6. ma'naviy qadriyatlarning susayishi;
7. maktab va oila hamkorligining sustligi;

Muammolarning kelib chiqish joyi oilaviy muhit hisoblanadi. Oilaviy muhitning qanday shakllanishiga bog'liq bo'ladi. Aslida oilaviy muhit deganda -bu oila a'zolari o'rtasidagi munosabatlar, ruhiy holat, qadriyatlar va kundalik hayot tarzining umumiy majmuasidir. U farzandning shaxs sifatida shakllanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega.

**Oilaviy muhit turlari:**

1. sog'lom oila bunda o'zaro hurmat va mehr mavjud bo'lib ota-ona va farzand o'rtasida ochiq muloqot qilish orqali qo'llab-quvvatlash va ishonch bo'ladi.

2. nosog'lom muhit bunda doimiy janjal va tshunmovchilik, e'tiborsizlik, zo'ravonlik va sovuqqon munosabatlar bo'ladi. Bu holat bolaning ruhiyati va xulqiga salbiy ta'sir qiladi.

Oilaviy muhit ta'sirida ota-onaning mas'uliyati ancha yuqori bo'ladi.

**Ota-ona mas'uliyati**- bu farzandni jismonan, ruhiy va ma'naviy jihatdan sog'lom, barkamol shaxs qilib tarbiyalash yo'lidagi burch va javobgardir. Bunda farzand bilan doimiy muloqot qilish, o'rnak bo'lish, adolatli va mehrlilik bo'lish, farzandga ishonch bildirish ota-onaning asosiy mas'uliyati hisoblanadi. Ota-ona mas'uliyati -farzand kelajagini belgilovchi eng muhim omildir. Mas'uliyati ota-onalar jamiyatda sog'lom va yetuk avlodni shakllantiradi. Mas'uliyati bilan birga vazifalari ham bo'lib bunda tarbiya berish, ta'limiga e'tibor qaratish, moddiy ta'minlash, psixologik qo'llab-quvvatlash, nazorat va yo'naltirish kabilardan iborat.

Tarbiya berish jarayonida birinchidan tarbiya, muhit, irsiyat bilan bog'liq. Ijtimoiy ta'sir -bu shaxsning xulq-atvori, fikrlashi va qadriyatlariga jamiyat, atrof-muhit va boshqa insonlarning ko'rsatadigan ta'sirdir. Ijtimoiylashuv institutlariga: oila, maktab, do'stlar va tengdoshlar, ommaviy axborot vositalari va internet, jamiyat va madaniyat kiradi. Yoshlar tarbiyasida jismonan sog'lom, ma'naviy yetuk, bilimli va jamiyatga foydali shaxs qilib shakllantirish jarayonidir. Bu jarayon oila, maktab va jamiyat hamkorligida amalga oshadi. Farzand tarbiyasining yomonlashuvini yuzaga kelishiga oilaviy nizolar eng asosiy sabab bo'ladi. Oilaviy nizolar- oila a'zolari o'rtasida yuzaga keladigan kelishmovchilik, tushunmovchiliklar kiradi. Buning natijasida oila barqarorligiga salbiy ta'sir qiladi. Asosiy nizolar bu ota-onaning

kelishmovchiligi,ularning bandligi va e'tiborsizligi,moliya va yashash sharoitidagi muammolar,ijtimoiy va madaniy ta'sirlar kiradi.Bunday vaziyatlarda samarali pedagogik yondashuvlardan foydalanish kerak.Ya'ni bunda individual yondashuvni qo'llash har bir bolaning xususiyatlarini inobatga olgan holda fikrini tinglash ,muammolarini muhokama qilish orqali muloqot qilish jarayonida qo'llab -quvvatlash asosida tarbiya berishdir.O'yin ,mashg'ulot va tajriba orqali faoliyatga yo'naltiriladi,ma'naviy qadriyatlarga urg'u bergan holda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdiriladi.

### **Xulosa**

Zamonaviy oilalarda farzand tarbiyasidagi muammolar ko'p va turli:ota-onaning vaqt yetishmasligi ,nosg'lom muhit,internetning salbiy ta'siri.Biroq ularni sog'lom muloqot, ijobiy muhit, shaxsiy yondashuv, ota-onaning mas'uliyati, ijtimoiy hamkorlik orqali bartaraf etish mumkin.

### **Foydalanilgan adabiyotar ro'yxati**

- 1.Axmedov N. Oila va tarbiya.
- 2.Islomova.D. zamonaviy oila va yoshlar tarbiyasi.
3. Karimov.M.psixologik va pedagogik yondashuvlar.
- 4.Saidov. A. Farzand tarbiyasida ota-ona mas'uliyati.
- 5.Mahmudova.L. Ijtimoiy ta'sir va yoshlar tarbiyasi.
- 6.O'zbekiston Respublikasi vazirlar Mahkamasi .Oilaviy siyosat va yoshlar tarbiyasi bo'yicha tavsiyalar.